

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

№ _____

2022 yil 20 yanvar

1. Loyihaning turi: Xo'jalik munosabatlari
2. Loyihaning yo'nalishi/nomi: Haq evaziga xizmat ko'rsatish to'g'risida
3. Loyihaning muallifi va kiritilgan sana haqida ma'lumot: Shartnoma loyihasi "UniconSoft" MCHJ tomonidan ishlab chiqilib Taxiatosh tumani Tibbiyot birlashmasiga oferta sifatida kiritilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 20.01.2022 yili kiritildi.

4. Loyiha bo'yicha taklif va izohlar:

Shartnoma loyihasi markaz tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi va quydagicha izoh beriladi:

shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ""ijro.gov.uz" intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyati ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 31.05.2021 yilgi PQ-5132 sonli Qarorini bajarilishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan;

mazkur shartnoma "Unicon-Soft" MCHJ (operator) tomonidan 20 yanvar 2022 yili ishlab chiqilgan va Taxiatosh tumani Tibbiyot birlashmasiga (abonent) 17 yanvar kuni shartnomani oferta sifatida qabul qilib olgan va markazga shartnoma loyihasi 20 yanvar sanasida kelib tushgan. Shartnoma loyihasiga ko'ra, "Unicon-Soft" MCHJ operator sifatida ijro.gov.uz yagona elektron tashkilotlararo ijro intizomi tizimini ishlashini ta'minlab berish bo'yicha kompleks xizmatlar ko'rsatishga, Tibbiyot birlashmasi o'z o'rnida abonent sifatida ko'rsatilishi rejalashtirilgan xizmatlarga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi;

Shartnoma loyihasi bo'yicha kompleks xizmatlarga quydagilar kirishi ma'lum qilingan:

- abonentni tizimda ro'yxatdan o'tkazish va aktivlashtirish;
- abonentni tizimda ishlash bo'yicha o'qitish va texnik yordam ko'rsatish.

Shartnomaning 2-bobida shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish narxlari va to'lovlarni amalga oshirish tartiblari keltirilib o'tilgan. Unga ko'ra, operator abonentning har bir foydalanuvchisi uchun 40,475.00 so'mdan 12 oy, 2022 yil 1 yanvar sanasidan 2022 yil 31 dekabr sanasigacha tizimda ishlashini ta'minlaydi. Ja'mi, har bir foydalanuvchi uchun 12

oy davomiyligiga 485,700.00 so'm va ja'mi 5 foydalanuvchisi uchun 12 oyga shartnomaning summasi 2,428,500 so'mni tashkil qilmoqda;

shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining normalarga va O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yilgi 670-I-son "Xo'jalik yurutuvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 10-16 modda talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Qolaversa, shartnoma loyihasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.08.2021 yilgi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-sonli Farmoni talablariga muvofiq ishlab chiqilib shartnoma loyihasiga korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarni o'ziga qamrab olgan.

Xulosa

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan, unga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq deb topildi.

Taxiatosh tumani
Yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti



A.Kdirbaev